

>>> print(b)

6

b global o'zgaruvchiga asosiy dasturda murojaat qilinganda ham natija sifatida 5 ni emas 6 ni chiqaradi, sababi u funksiya ichida global sifatida e'lon qilingan.

O'zgaruvchi funksiya parametr sifatida

Agar o'zgaruvchi funksiya parametr sifatida ishlatsa, uning qiymati lokal o'zgaruvchining yangi qiymati sifatida qabul qilinadi.

>>> def val4(d):

 print(d)
 d=100 print(d)
>>> c=200
>>> val4(c)200
100

d ning qiymati **val4** nomli funksiya qaysi qiymat bilan chaqirilsa, shu qiymatga teng, ya'ni c ga teng.

Funksiya ichida parametr sifatida kelgan d ning qiymatini ekrange chiqarish buyrug'i berildi.

Lokal o'zgaruvchi d ga yangi qiymat berildi.

d lokal o'zgaruvchining qiymati ekrange chiqarildi.

Global o'zgaruvchi c e'lon qilindi.

Asosiy dasturda **val4** nomli funksiya c parametr bilan chaqirilganda, birinchi parametr sifatida kelgan 200 ni, keyin esa lokal o'zgaruvchiga yangi berilgan qiymat 100 ni chiqaradi.



1. Funksiyaning parametrlari nima?
2. Funksiyaning tanasida qaysi kodlar yoziladi?
3. Lokal o'zgaruvchi deb nimaga aytildi?
4. Global o'zgaruvchi deb nimaga aytildi?
5. Lokal va global o'zgaruvchilarning farqi nimada?



1. n natural soni berilgan. $S=1*5+2*6+3*7+\dots+n*(n+4)$ ifodani hisoblash dasturini protsedura yordamida tuzing.
2. a va b natural sonlari berilgan. a va b sonlaridan kattasini topish funksiyasini tuzing. Funksiyadan foydalanib, a, b va c sonlari ichidan kattasini topish dasturini tuzing.

61-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

Misol. Berilgan ikkita sonning eng katta umumiyo bo'lувchisi (EKUB)ni topish dasturini tuzing. Funksiyadan foydalaning.

Berilgan ikkita sonning eng katta umumiyo bo'lувchisi (EKUB)ni topishning eng oddiy usuli mifik tab darsliklarida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda ikkala son tub bo'lувchilarga ajratiladi va ularidan umumiylari ko'paytirib chiqiladi.

$$60=2*2*3*5$$

$$21=3*7$$

$$\text{EKUB}(60,21)=3$$

Bu usul matematikada qulay, lekin dasturlashda undan foydalanish noqulay va sekin kechadi. Shu sababli, **Yevklid algoritmi**dan foydalilanadi.

Yevklid algoritmida 2 ta usuldan foydalaniladi.

1-usul. Ikkita sonning kattasidan kichigi ayirib boriladi va ayirma kichik sondan kichik bo'lib qolsa, ularning o'rni almashtiriladi.

1) $60 - 21 = 39$; 2) $39 - 21 = 18$; 3) $21 - 18 = 3$.

$EKUB(60,21) = 3$

2-usul. Qadamlar sonini kamaytirish uchun ayirish o'rniga qoldiqli bo'lishdan foydalanish mumkin.

1. Ikkita sonning kattasini kichigiga bo'lib, qoldiq topiladi.

2. Ularning o'rni almashtiriladi.

3. 1- va 2-qadamlar sonlardan biri nol bo'lguncha davom ettiriladi.

4. Oxirida qolgan son shu ikki son uchun EKUB bo'ladi.

$60/21 = 2 * 21 + 18$ qoldiq

$21/18 = 1 * 18 + 3$ qoldiq

$18/3 = 6 * 3 + 0$ qoldiq

$EKUB(60,21) = 3$

```
def ekub(a, b):
```

```
while a != 0 and b != 0:
```

```
    if a > b:  
        a %= b
```

```
    else:  
        b %= a
```

```
    ekub_q=a+b
```

```
return ekub_q
```

```
a = int(input())  
b = int(input())
```

```
print(ekub(a,b))
```

```
60  
21  
3
```

*a, b parametrlarni qabul qiluvchi **ekub** nomli funksiya e'lon qilindi.*

Sikl tanasi buyruqlari a va b **0** ga teng bo'lguncha takrorlanadi:

1-sikl. $a = 60$; $b = 21$

2-sikl. $a = 18$; $b = 21$

3-sikl. $a = 18$; $b = 3$

4-sikl $a = 0$; $b = 3$ sikldan chiqadi.

Agar a soni b dan katta bo'lsa, a/b qoldig'ini a ga o'zlashtiradi:

1-sikl. $60 > 21 \rightarrow a=60 \% 21 = 18$

3-sikl. $18 > 3 \rightarrow a=18 \% 3 = 0$

Aks holda, b/a qoldig'ini b ga o'zlashtiradi:

2-sikl. $18 < 21 \rightarrow b=21 \% 18 = 3$

ekub_q=0+3=3 EKUB ni hisoblaydi.

ekub_q qiymatni qaytaradi.

a, b ga qiymat beriladi.

2 ta son EKUBining funksiyasi chaqirilib, ekranga natija chiqariladi.

1. Berilgan to'rtta sonning eng kichigini topuvchi dastur tuzing. Buning uchun min4 (a, b, c, d) funksiyasini yarating.

2. Berilgan a (haqiqiy) sonining k (butun) darajasini topuvchi dastur tuzing. Buning uchun daraja (a, k) funksiyasini yarating.

3. Inglizcha harf va raqamlardan iborat satr berilgan. Ushbu satr qancha raqamdan iboratligini hisoblovchi dastur tuzing.

